



## SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### SIRDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot  
2025- yil yanvar oyi*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Тел. 67-236-70-00 (40)*

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar oyi, foizda)




2025- yil 1- fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 406 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 61 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 345 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.


**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

## Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar, mlrd so'mda)



So'nggi 5 yillik (2021- 2025- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 109,6 % ni tashkil qildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2024- 2025- yillar, foizda)



2025- yilning yanvar oyida o'sish sur'ati 109,5 % ni tashkil qildi.



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

3

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2025-yilning yanvar oyida Sirdaryo viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 425,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 109,5 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 30,1 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 115,8%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 395,0 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 109,0%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 46,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 117,5 %) tashkil etdi.


### Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar oyi)

	Jami, mlrd so'm	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>425,2 *)</b>	<b>109,5</b>
<b>Guliston sh.</b>	149,1	110,2
<b>Shirin sh.</b>	5,5	109,0
<b>Yangiyer sh.</b>	38,6	109,3
<i>tumanlar:</i>		
<b>Boyovut</b>	22,0	108,1
<b>Guliston</b>	20,3	110,0
<b>Mirzaobod</b>	22,8	109,6
<b>Oqoltin</b>	20,9	110,1
<b>Sardoba</b>	12,2	109,9
<b>Sayxunobod</b>	18,1	108,1
<b>Sirdaryo</b>	69,9	109,0
<b>Xovos</b>	14,5	108,3

\* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yilning yanvar oyida 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning Guliston sh. (**110,2** %), Yangiyer sh. (**109,3** %), Mirzaobod (**109,6** %), Sardoba (**109,9** %), Oqoltin (**110,1** %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Guliston shahri 35,1 % bilan 149,4 mlrd so‘mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Shirin shahri 1,3 % bilan 5,5 mlrd so‘mni tashkil etdi.

2025- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o‘shish kuzatildi.




#### Hajmi, mlrd so‘m






## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2025- yilning yanvar oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 395,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 9,0 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 92,9 % ni tashkil etdi.




## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 15,8 % ga o'sdi va 30,1 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 7,1 % ulushiga to'g'ri keldi.




## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



● Yirik korxonalar

● Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Shirin sh. (100,0 %), Oqoltin (98,7 %) va Xovos (99,3 %) hududlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston sh. (12,5 %) va Mirzaobod (4,0 %), Yangiyer sh. (5,1 %), Sirdaryo (3,4 %) tumanlarida kuzatildi.




● Yirik korxonalar

● Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




## AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)



2025- yilning yanvar oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 460,9 ming so'mni (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 107,4 %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (1 484,0 ming so'm), Yangiyer shahri (796,4 ming so'm) va Sirdaryo (505,5 ming so'm) tumani hissasiga to'g'ri keldi.






Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar), foizda**



- Dehqon bozorlari



- Chorva bozorlari

**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o‘rinlari, turg‘un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


**Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o‘shish sur‘atlari  
(2025- yil yanvar)**

	<b>Jami, mlrd so‘m</b>	<b>2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>46,9</b>	<b>117,5</b>
Guliston sh.	5,5	70,2
Shirin sh.	-	-
Yangiyer sh.	3,6	153,1
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	1,3	118,0
Guliston	6,3	109,9
Mirzaobod	6,1	141,9
Oqoltin	-	-
Sardoba	8,0	162,2
Sayxunobod	5,5	76,2
Sirdaryo	4,6	164,7
Xovos	6,0	164,1


\* – xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo‘shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda  
(2025- yil yanvar)**















**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'm (2025- yil yanvar)**



Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 56,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 117,5 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 18,3 mlrd so'mni (120,8 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 28,6 mlrd so'mni tashkil etdi (111,7 %).












2025 - yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 18,3 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (8,2 mlrd so'm) to'g'ri keldi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b></p> <p><b>8,2 mlrd so'm</b></p>  <p><b>44,5 %</b></p>	<p><b>Non va non mahsulotlari</b></p> <p><b>2,2 mlrd so'm</b></p>  <p><b>12,2 %</b></p>	<p><b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b></p> <p><b>1,5 mlrd so'm</b></p>  <p><b>8,4 %</b></p>
<p><b>Tovuq go'shti</b></p> <p><b>0,9 mlrd so'm</b></p>  <p><b>5,1 %</b></p>	<p><b>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b></p> <p><b>1,0 mlrd so'm</b></p>  <p><b>5,3 %</b></p>	<p><b>Tuxum</b></p> <p><b>0,7 mlrd so'm</b></p>  <p><b>3,9 %</b></p>
<p><b>Ziravorlar</b></p> <p><b>0,9 mlrd so'm</b></p>  <p><b>5,0 %</b></p>	<p><b>Sut va sut mahsulotlari</b></p> <p><b>1,6 mlrd so'm</b></p>  <p><b>8,5 %</b></p>	<p><b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b></p> <p><b>0,1 mlrd so'm</b></p>  <p><b>0,3 %</b></p>
<p><b>Tuzlamalar</b></p> <p><b>0,8 mlrd so'm</b></p>  <p><b>4,5 %</b></p>	<p><b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b></p> <p><b>0,3 mlrd so'm</b></p>  <p><b>1,6 %</b></p>	<p><b>Nooziq-ovqat tovarlar</b></p> <p><b>0,1 mlrd so'm</b></p>  <p><b>0,7 %</b></p>

2025- yilning yanvar oyida, Viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 28,6 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 23,1 mlrd so'm, qo'y va echkilar – 3,3 mlrd so'mni, otlar – 2,1 mlrd so'mni, parrandalar – 0,1 mlrd so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p><b>10,5 mlrd so'm</b></p>  <p>36,6 %</p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>5,4 mlrd so'm</b></p>  <p>19,1 %</p>	<p><b>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>7,2 mlrd so'm</b></p>  <p>25,2 %</p>
<p><b>Qo'ylar</b></p> <p><b>2,6 mlrd so'm</b></p>  <p>9,2 %</p>	<p><b>Otlar</b></p> <p><b>2,1 mlrd so'm</b></p>  <p>7,1 %</p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p><b>0,7 mlrd so'm</b></p>  <p>2,4 %</p>
<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p><b>0,04 mlrd so'm</b></p>  <p>0,2 %</p>	<p><b>Tovuqlar</b></p> <p><b>0,03 mlrd so'm</b></p>  <p>0,1 %</p>	<p><b>Quyionlar</b></p> <p><b>0,02 mlrd so'm</b></p>  <p>0,08 %</p>
<p><b>Qushlar</b></p> <p><b>0,01 mlrd so'm</b></p>  <p>0,02 %</p>		

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025- yil 1- fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 656 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 655 tani tashkil qildi.

### Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar)

	Jami mlrd so'm	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>228,9*)</b>	<b>114,3</b>
Guliston sh.	6,2	120,0
Shirin sh.	0,2	102,5
Yangiyer sh.	1,3	105,1
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	0,4	105,5
Guliston	1,2	104,9
Mirzaobod	1,1	104,0
Oqoltin	0,8	101,0
Sardoba	0,2	102,2
Sayxunobod	0,4	103,9
Sirdaryo	1,1	105,4
Xovos	0,1	102,7

\* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 228,9 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 114,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 89,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	<b>Hajmi, mlrd so‘m</b>	<b>Ulushi, foizda</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>23,8</b>	<b>100,0</b>
Guliston sh.	5,3	22,3
Shirin sh.	0,01	0,0
Yangiyer sh.	0,5	2,1
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	0,3	1,3
Guliston	1,5	6,3
Mirzaobod	0,1	0,4
Oqoltin	7,9	33,2
Sardoba	1,9	8,0
Sayxunobod	0,2	0,8
Sirdaryo	6,1	25,6
Xovos	0,01	0,0


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (5,3 mlrd so‘m), Oqoltin (7,9 mlrd so‘m) va Sirdaryo (6,1 mlrd so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd so‘m)



2025- yilning yanvar oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 23,8 mlrd so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 62,4 % ni tashkil qildi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 22,6 mlrd so‘m (o‘sish sur‘ati – 61,1 %)ni tashkil qildi.


### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘atlari, foizda






**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2025- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 418,9 mlrd so‘mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 8,0 % ga o‘tdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 406,4 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 106,5 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 97,0 % ni tashkil qildi.

## Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar)

	<b>Jami mlrd so'm</b>	<b>2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>418,9*)</b>	<b>108,0</b>
Guliston sh.	103,6	110,4
Shirin sh.	4,3	107,9
Yangiyer sh.	22,7	109,8
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	18,0	108,6
Guliston	12,4	111,4
Mirzaobod	14,2	106,0
Oqoltin	12,4	107,5
Sardoba	11,0	106,2
Sayxunobod	15,7	109,1
Sirdaryo	117,5	104,6
Xovos	11,0	104,6

\* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025-yil 1-fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 1 126 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 23 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 103 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega Guliston (111,4 %), Sayxunobod (109,1 %) tumanlar hamda Guliston (110,4 %) va Yangiyer (109,8 %) shaharlarida kuzatildi.